

XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV ASARLARIDA O‘XSHATISH VA METAFORANING KONTEKSLARDAGI O‘RNI

Nigora Jo‘ranazarova Qurbanboy qizi

TerDPI o‘qituvchisi

Qahhorova Dinora Shuhrat qizi

TerDPI talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada X.To‘xtaboyev asarlarida qo‘llanilgan kontekslardagi metafora va o‘xhatish hodisasi obyekt qilib olingan. Kontekslardagi metafora va o‘xhatish hodisasining qo‘llanilishi asar mohiyatini ochib berishdagi ahamiyati haqida aytib o‘tildi. Shuningdek, metafora va o‘xhatish hodisasi o‘rtasidagi farqlar ochib berildi.

Kalit so‘zlar: Metafora, o‘xhatish, o‘xhatish subyekti, o‘xhatish etaloni, ko‘chma ma‘no.

“Sariq devning o‘limi” asaridagi kontekslar orasidagi metaforalar

Ehtimol, meni **chuqurroq** o‘rganish uchun o‘z uyiga olib borgandir? Menga ko‘rsatilgan mehribonchiliklarning hammasi **yasama** bo‘lsa-ya?! (61-bet) *Bu o‘rinda chuqurroq – mazmuniy o‘xhashlik bo‘lib, o‘sha insonni yaxshiroq bilish ma’nosini ifodalayapti. Yasama esa – u ham mazmuniy o‘xhashlik bo‘lib yolg‘on iltifot ma’nosini ifodalayapti.*

Yo‘q, yo‘q, kecha men sizni va butun komissiya a’zolarini aldagan edim, yolg‘on so‘zlagandim. U meni **sotganda**, men qarab turamanmi? Men o‘rtoq Ro‘ziyevga tuhmat uyuştirilganidan xabardorman. (65-bet)

Sotganda – mazmuniy o‘xhashlik bo‘lib, xiyonat qilgan, sotqinga nisbatan ishlataliyapti.

E, ha, hamma gap bu yoqda ekan-ku, deb o‘yladim. Baqaloq bufetchining aytishicha, **baxti qaro** direktor uchiga chiqqan tuhmatchi, uchiga chiqqan poraxo‘r ekan. (65-bet)

Baxti qaro – bu yerda “baxti qaro” iboraga aylanib ulgurgan metaforik o‘xhatishdir. Mazmun jihatdan qora rang “zulmat, qayg‘u tushkunlik” ma’nolarini ifodalaydi. Aynan shuning uchun hayotda baxtini topmagan insonlarga nisbatdan “baxti qaro” iborasi ishlataladi.

Har kuni **bosh oshpazlardan** ellik so‘mdan, shu ko‘ksiga mushtlab so‘zlayotgan bufetchidan 60 so‘m olar ekan. (66-bet)

Bosh oshpaz - bizga ma’lumki, metaforada o‘xhatish birinchi o‘rinda turadi. O‘xhatishda inson a’zolari asosiy obyekt bo‘lib xizmat qiladi. Misol uchun, bosh oshpaz so‘zida ham aynan boshning ishlatalish sababi, bosh – eng yuqorida turib

insoning boshqa a’zolari boshqaradi. Shuning uchun ham bosh so‘zi (sardor, rahbar, ergashtiruvchi) ma’nolarni ifodalaydi. Bosh oshpaz esa boshliq degan ma’noni ifodalayapti.

Agar bufetchi uning **qo‘lidan eson-omon chiqib ketsa**, avval elektromontyor bo‘lgan ekan, yana o‘z kasbiga jon-jon deb qaytishga tayyor ekan. (66-bet)

Qo‘lidan eson-omon chiqib ketsa – bu o‘xshatish metaforik iboraga aylanib ulgurgan. Bu, albatta, majoziy o‘xshatish bo‘lib, ya’ni ziyon-zahmatsiz, urish-janjalsiz, sog‘-omon muammoni hal qilib olish nazarda tutiladi.

Nega endi, hammasi besh qo‘ldek ayon bo‘ldi-ku? Odil Abbosov **qari tulki**, uni osonlikcha qo‘lga tushirib bo‘psan. Sen bilan men to‘plagan faktlarni, bir hamla bilan yo‘qqa chiqarib qo‘yishi mumkin! (66-bet)

Qari tulki – bunday o‘xshatish mazmuniy o‘xshatish bo‘lib, ayrim insonlarga nisbatan qo‘llaniladi. Bizga ma’lumki, tulki – ayyorlik, mug‘obirlik ramzi hisoblanadi. Shuning uchun ham ayyor, pishiq, mug‘obir insonlarga nisbatdan tulki nisbati ishlatiladi.

Lekin o‘rtamizda bo‘lgan bu gaplarni direktoringga aytma.
– Aytmayman, peshonamga to‘pponcha qadashsa ham aytmayman. (67-bet)

Peshonamga to‘pponcha qadashsa ham – mazmuniy o‘xshatish bo‘lib, har qanday vaziyatda ham, nima bo‘lgan taqdirda ham, qanchalik qiyin bo‘lsa ham biror voqeani aytmaslik ma’nosida ifodalanadi.

Kechqurun qaytsam, qo‘shnimizning Botir, Bobur, Sobir, Bahodir, Bahrom, Baxtiyor, Sevar, Sarvi ismli bolalari mening ustozimni har tomondan o‘rab, chug‘urchiqdek chug‘urlashib, **boshini qotirishyapti**. (68-bet)

Boshini qotirishyapti – mazmuniy o‘xshatish bo‘lib, qotirmoq – biror narsani qattiq buramoq ma’nosi bor. Bu yerda esa boshni og‘ritmoq ma’nosini beryapti.

Qo‘y, haydama, o‘zim chaqirtirib chiqdim, shularni ko‘rsam, **kasalim yengillashadi**”, – deb ko‘nmadi. Hamshira ukol qilgani kelgan edi, unga ko‘zimni qisib: “Avval bolalarga nina tiqarkansiz, Salimjon akam aytyaptilar”, (69-bet)

Kasalim yengillashadi – bu yerda metaforaning mazmuniy o‘xshatishi ishlatilyapti. Yengillashmoq kasalikdan asta-asta tuzalmoq ma’nosini ifodalayapti.

Adolat komissiyasining ikkinchi a’zosi kapitan Karomat Hoshimova avval qanday bo‘lsa, bugun ham shunday, **qovog‘idan chakillab zahar tomib turibdi**. Uni juda qattiqko‘l deyishadi, o‘zi shu militsiya bo‘limidagi jamiki yoshlarning boshlig‘i. (75-bet)

Qovog‘idan chakillab zahar tomib turibdi – bu metaforik ibora hisoblanadi. Juda badjahl, qattiqko‘l, jahli chiqib turgan odamlarga nisbatan ishlatiladi.

Bu ko‘zlarimda yaxshilar uchun shafqat, yomonlar uchun dahshat bor, – kulib qo‘ydi polkovnik. – Astoydil tikilsam, **irodasi bo‘shroq** odamni uxlatib qo‘yaman.... Lekin bufetchi boplab qochib qoldi.... Baribir haqiqatni aytishga majbur qilaman uni. (77-bet)

Irodasi bo‘shroq - bu yerda mazmuniy o‘xshashlik bo‘lib, yumshoq ko‘ngil, rahimdl insonga nisbatan ishlataladi.

Men Salimjon akamning topshirig‘iga ko‘ra, to‘yxonada yugurib-yelib xizmat qilar edim. Qo‘l-oyog‘i chaqqongina yigit emasmanmi, goh oshxonaga yuguraman, goh **o‘choq boshida** paydo bo‘lib qolaman, goh samovarga o‘t qalab ketaman. (80-bet)

O‘choq boshida – joylashish o‘rniga ko‘ra o‘xshashligi bo‘lib, o‘choqning usti qismiga, oldi qismiga nisbatan aytildi.

Bizning qishloqlarda to‘ppa-to‘g‘ri qovurib yoki pishirib yeyilaveradigan qo‘y go‘shtlarni ham tarelkalarga yulduzsimon qilib terishib, o‘rtasiga allaqanday narsalar qo‘yisharkan bu yerda. Noz-ne’matlar uzun **stollarning belini** naq egay deb turibdi. (81-bet)

Stollarning belini – joylashish o‘rniga ko‘ra o‘xshatish. Stolning ushlab turuvchi qismi hisoblanadi.

“Besh bolali yigitcha” asarida uchragan metafora usulida ma’nosи ko‘chgan birikmalar:

Hoy, **qovoqboshlar**, birpas ko‘chaga chiqsanglar-chi! – deb katta kaltakni olib quvlab qoladi To‘xta xolam. (66-bet)

Qovoqboshlar – shakl o‘xshashligini inobatga olib odamga nisbatan, uning boshini qovoqqa o‘xshashligini inobatga olib, shu so‘zni ishlataladi.

Bilasiz-ku, bunaqangi paytda biz echkidan ham **shaytonroq** bo‘lib ketamiz: birimiz devordan, birimiz quradan, yana bittamiz **eshikning boshidan** oshib ko‘chaga chiqib ketamiz... (66-bet)

Shaytonroq – bu gapda shaytonroq so‘zi bezori, hazilkash, juda sho‘x, tinib-tinchimas bolalarga nisbatan ishlataladi.

Eshikning boshi – joylashish o‘rniga ko‘ra o‘xshashlik bo‘lib, eshikning eng baland qismiga nisbatdan ishlataliyapti.

O‘ziyam o‘tgan yilgi sumalakdan buyon bunaqangi ko‘p bola to‘planmagan, o‘yin ham shu bugungidaqangi **qizimagan edi**. Bov ustiga bov o‘ynab charchamagach “**Eshak mindi**”ga o‘tdik ketidan. (67-bet)

“Eshak mindi” – joylashish shakliga ko‘ra o‘xshashlik bo‘lib, bolalarning bu o‘yinida bolalar xuddi eshakka o‘xshab turib olgani va ikkinchisi kelib minib olish jarayoni bo‘lgani, shaklan o‘xshagani, inobatga olinadi.

Ha, **katta xola**, bolang yig‘lab qoptimi? Deb mazax qildi Hayitkalla. (67-bet)

Katta xola – bu yerda katta so‘zi joylashish o‘rniga ko‘ra “boshlig‘i”, “birinchisi” degan ma’noda kelyapti.

U mening opamga qaraganda juda sho‘x **juda yengil o‘ynarkan**, o‘ynab-o‘ynab davra o‘rtasida to‘xtadi-da, ashula boshlab yubordi: (70-bet)

juda yengil o‘ynarkan – bu o‘xshatishda shakliy o‘xhashlik asos qilib olinadi. “Yengil o‘yash” – ohista, noziklik bilan o‘ynash nazarda tutilmoqda.

Voy, **shirinim-ey**, endi yemaydi. Usmonjon endi nonni yemaysan-a? ... Robinisam qani? (80-bet)

shirinim-ey – metaforada o‘xshatish asos hisoblanadi. Bolaga nisbatan “shirin” so‘zining ishlatilishi, uning juda yoqimtoy, chiroyli bola ekanligidan darak beradi.

O‘ris xola bizni hovlida qoldirib o‘zi bir chekkadagi **pakana uylardan** biriga kirib ketdi. (89-bet)

pakana uylar – bu yerda shakliy o‘xhashligi asos qilib olingan. Pakana uylar – kichkina, past-past uylar nazarda tutilmoqda.

Masalan: *Qosim quyonday qo‘rroq bola*, deyilsa, Qosim – o‘xshatish subyekti; *quyon* – o‘xshatish etaloni; *qo‘rroq* – o‘xshatish asosi; *-day* – o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi hisoblanadi. Tilshunos olima Munavvara Yoqubbekova o‘zbek xalq qo‘shiqlari lingvopoetikasiga bag‘ishlangan monografiyasida o‘xshatishning yana bir unsuri “o‘xshatish maqsadi” ham mavjudligini ta’kidlagan¹.

Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlarida ham o‘xshatish vositasini uchratishimiz mumkin:²

1) Zulayho, ilgari ham aytuvdim, shekilli, juda ham irimchi qiz bo‘lgan. Qayoqdagi ins-u jinslarga, dev-u parilarga shunaqangi qattiq, ishonadiki, xuddi Soy mahalladagi **Otinbibi xolamning o‘zginasi deysiz**. (109-bet)

Bu jumlada o‘xshatish subyekti – Zulayho; o‘xshatish etaloni - Otinbibi xola; o‘xshatish asosi – irimchiligi; o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi – o‘zginasi morfologik-leksik vositasi. Zulayhoni Otinbibi xolaga o‘xshatish orqali Otinbibida bor xarakter (aynan irimchiligi) unda ham mavjud ekanligiga ishora qilinayapti.

Tasodifni qarangki, Zulayho **xuddi o‘ziga o‘xshagan** bitta Dilbar degan qiz bilan topishib olishibdi, ikkovlari yotoqxonadagi qizlarga «Kechasi tuynuk oldiga kelib dadamiz-u akamiz, xullas, kimni sog‘ingan bo‘lsak, o‘shaning nomini aytib nolish qilamiz. (110-bet)

Xuddi o‘ziga o‘xshagan – bu jumlada Zulayho – o‘xshatishning subyekti; Dilbar – o‘xshatish etaloni; O‘ziga o‘xshagani – o‘xshatish asosi; Xuddi-

¹ Yoqubbekova M. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari. – Toshkent, 2008.-B. 84.

² Xudoyberdi To‘xtaboyev “Besh bolali yigitcha” -«Yangi asr avlod»i, 2009-yil.

o ‘xshatishning shakliy ko ‘rsatkichi. Bu yerda Zulayhoning Dilbarga tashqi o ‘xhashligi emas, ulardagi xarakter o ‘xhashligi haqida gap ketayapti.

3) Ana shu Shermat avvaliga bolalar nola qilamiz desa ko‘nmay, kim nola qilsa burnini kesaman deb dag‘-dag‘a qildi. Bugun bo‘lsa to‘satdan bolalarni nola qilishga **xuddi ko‘rikka tayyorlayotgandek** tayyorlay boshladи. (110-bet)

Bu yerda bolalar – o ‘xshatishning subyekti; ko ‘rikka tayyorlayotgan-o ‘xshatish etaloni; nola qilishga – o ‘xshatish asosi; xuddi va -dek o ‘xshatishning shakliy ko ‘rsatkichi hisoblanadi. Shermatni bolalarni nola qilishga izma-iz qo ‘yib tayyorlashi xuddi ko ‘rik uchun kelgan bolalarni eslatadi.

To‘g‘ri topding, - dedi tarbiyachi opa, - uzun **terak, ichi kovak, kim aytadi?** - Qamish! - dedi mening ukam Sulton. - To‘g‘ri. Tap-tap etadi, tagidan karvon o‘tadi? (112-bet)

Bu yerda o ‘xshatishning subyekti – qamish, bo ‘lsa o ‘xshatish etaloni –terak, o ‘xshatish asosi – ichi kovok hisoblanadi. Bu topishmoqda qamish ta ’rif berilgan.

Angishvona, – dedi uchinchisi. **E boringki, «Voy o‘lmasam» opa bizning, yetti xuftongacha ushlab o‘tirdi-da,** topishmoqning ham shunaqangi qiyinlaridan yozib kelibdiki, bir xillariga javob topguncha naq, terlab ketdik (112-bet)

Bu gapda yetti xuftongacha – ya ’ni yetti kecha-kundiz degan ma ’noni beradi.

Mukofotni Qoravoyga beramiz, – dedi-yu, rasmlи qalamlarni egasiga topshirib, **xuddi orqasidan birov quvlagandek** shoshilinch chiqib ketdi. (112-bet) *Qoravoy – o ‘xshatish subyekti, o ‘xshatish etaloni – quvlagandim; o ‘xshatish asosi – orqasidan quvladandek, xuddi – o ‘xshatishning shakliy ko ‘rsatkichi hisoblandi.*

Har kim o‘z bilganicha nola qilaversin! - buyruq, berdi **Shermat fotiha o‘qigandek** ikki qo‘lini oldinga cho‘zib. (112-bet)

Bu gapda Shermat – o ‘xshatish subyekti, o ‘xshatish etaloni –o ‘qigandek, fotiha – o ‘xshatishning asosi, -dek qo ‘shimchasi – o ‘xshatishning shakliy ko ‘rsatkichi hisoblanadi.

Men Ko‘rshermat hammamizni savalab nonimizni tortib olayotganidan **ulardek** mehri qattiq, toshbag‘ir bo‘lsa kerak deb o‘ylab yurardim, yo‘q unchalik emas ekan, shunaqangi yig‘layaptiki, ishonsangiz o‘zimning ham rahmim kelib ketyapti unga. (114-bet)

Ulardek – ko ‘rsatish olmoshiga -dek shakliy ko ‘rsatkichini qo ‘shish orqali o ‘xshatish hosil bo ‘lgan. Ulardek so ‘zi zamirida “mehri qattiq, toshbag‘ir” so ‘zlar yotibdi.

Olim Chapayev degan bir bola oynani yonginasidagi karavotda yotadigan Usta laqabli bir bola oldin **jo‘jaxo‘rozdek** tikkama-tikka bo‘lib olishib ketishdi. Chapayev bu yerga to‘rt yoshligida kelgan ekanda, tolning novdasiga otilib minib, men Chapayevman ... (114-bet)

Jo ‘jaxo ‘rozdek – bu gapimizda jo ‘jaxo ‘roz so ‘ziga -dek shakliy ko ‘rsatkichi qo ‘shish orqali o ‘xshatish hosil bo ‘lyapti. Bu o ‘xshatish hali yosh, lekin g ‘ayrati va yuragida o ‘ti bor bolalarga qiyoslashadi.

Vaqt ham allamahal bo‘lib qolgan edi. Bir xillar nola qila-qila charchab, xuddi **nomoz o‘qiyotgandek** cho‘kka tushib, yana bir xillari peshanasini kaftiga qo‘ygancha uxbab qoldi. Men ham ochig‘ini aytsam, otamni juda sog‘ingan edim. (115-bet)

Xuddi nomoz o‘qiyotgandek – gapimizda ikkita shakliy o ‘xshatish bor, xuddi yordamchisi va -dek qo ‘shimchasi orqali ifodalangan.

Oralaringda a’lochilar ham bormi? Yeb to‘ymas tepe xonada ketayotgan edi, **uyasidan tumshug‘ini cho‘zgan chumchuq boladek** bo‘ynini cho‘zib (136-bet).

Uyasidan tumshug‘ini cho‘zgan chumchuq boladek – bu gapimizda o ‘xshatish ibora orqali va -dek shakliy ko ‘rsatkichi orqali ifodalanyapti.

O‘xshatish deb bir predmet yoki hodisani ikkinchi bir predmet yoki hodisa bilan taqqoslanganda ularning shakli yoki mazmun tomondan obrazli o‘xhashligiga aytildi. O‘xshatish obyekti tasvirlamoqchi bo‘lgan predmet, hodisa; o‘xshatish obrazi – taqqoslangan predmet, hodisalarning tasviriy vositasi, ikki predmet va hodisaning bir-biriga mos kelishidir³.

“Sariq devni o‘limi” asarida ko‘chma ma’noli so‘zlardan foydalanish mahorati.⁴ Asarda ma’no ko‘chishining **metonimiya** usulidan namunalar:

1. Bugun komissiyaning ikki a’zosi kelmadi, qarang, ikkovi ham gripp bo‘lib qolibdi. Polkovnik bo‘g‘ilib, garchi kabinetining bo‘yi bilan eni qancha ekanligi o‘ziga azaldan ma’lum bo‘lsa ham, **oyog‘ini metr qilib**, yana o‘lchashga tushib ketdi. (61-bet)

Oyog‘ini metr qilib – bu o ‘rinda oyoq o ‘lchov (metr) ma ’nosida kelyapti. Yani oyoq bilan o ‘lchov (metr) orasida aloqadorlik mayjud. Chunki ,ikkalasida ham o ‘lchash imkonyati bor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yoqubbekova M. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari. – Toshkent.: 2008.-B. 84.
2. To‘xtaboyev X.Besh bolali yigitcha. Yangi asr avlodi, 2009.
3. Mukarramov M. O‘zbek tilida o‘xshatishlar. –Toshkent: Fan, 1976. – B.19.
4. G. X. Qurbonova. (2022). EXPRESSION OF ASTRONYMS IN UZBEKI THROUGH ZOOMORPHEMS. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 7, 66–70.

³ Mukarramov M. O‘zbek tilida o‘xshatishlar. –Toshkent: Fan, 1976. –B.19.

⁴ Xudoyberdi To‘xtaboyev. Sariq devning o’ limi. «Yangi asr avlodi», 2017-yil.

5. Kizi, N.J.K. 2023. The Spiritual-Semantic Group of Phrases in the Works of Khudoyberdi Tokhtaboyev. *International Journal on Integrated Education.* 6, 3 (Mar. 2023), 28-31.
6. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2023). Timurid princess The image of time and spirit in the image of Saraymulkhanim. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(6), 84–87.
7. Saidmuradova Sakhiba Jalmurodovna, & Kholmurodova Khursandoy. (2024). The Issue of Artistic Psychologism in Modern Uzbek Prose. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 2(1), 301–304.
8. Nigora Jo‘ranazarova Qurbonboy qizi. (2023). BOLALAR ADABIYOTIDA IBORALARNING LISONIY-SEMANTIK XUSUSIYATI. *PEDAGOGS*, 46(1), 57–62.
9. Sayfullayev Najibullo, Boboniyozova Manzura. (2024). IMPORTANCE OF DIALECTS IN PLACE NAMES. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 11(02).
10. Parda Alimov. (2023). SPECIFIC CHARACTERISTICS OF TODAY’S UZBEK NOVEL AND FORMAL RESEARCH. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(6), 80–83.
11. Shaxnoza Majidova. (2021). HISTORY OF THE STUDY OF HYDRONYMS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 676–680.
12. O‘rolova , M., & Sayfullayev , N. (2024). O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MORFONOLOGIYAGA DOIR TALQINLARI VA XUSUSIYATLARI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, (5)(42).
13. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO`Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, 1(4), 34–37.
14. Avriddinov Jobir Musulmon o‘g‘li. (2023). "ZUFONGO’YO VA JAHHONPOYO" LUG‘ATIDA SO’Z TARKIBI. IMRAS, 6(7), 565–569.
15. Nodira Hamidova 2023. Ghafur Ghulam’s Stories Have Their Own Artistic Expression Characteristic of the Common Language Style. *International Journal on Integrated Education.* 6, 10 (Oct. 2023), 41-44.